

O'ZBEK VA ARAB TILLARIDA “SABR” KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Akbarxonova Mohidilxon Yaxyoxon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 1-kurs talabasi
mohidilxonakbarxonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va arab xalqlari madaniyatida asosiy o'rin tutuvchi “sabr” tushunchasi qiyosiy-lingvistik tahlil qilingan. Har ikki tildagi xalq og'zaki ijodi(maqol, hikmatli so'zlar) orqali tasnif qilingan. Shuningdek, aholining ijtimoiy hayotida tutgan o'rniga ko'ra “sabr” tushunchasining milliy-madaniy xususiyatlari, inson irodasini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sabr, maqol, ijtimoiy hayot, madaniyat, hikmatli so'z, iroda, lingvistika.

Raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan asrda inson tafakkuri, uning til bilan bog'liqlik qonuniyatlarini o'rganuvchi antroposentrik paradigmaning ahamiyati ham tobora ortmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat o'rtasidagi aloqalarni o'rganish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Zero, til xalqning madaniyati, dunyoqarashi va o'zligini aks ettiruvchi ko'zgudir.

Biz aksariyat holatlarda qo'llaydigan “sabr” tushunchasi, uning arab tiliga bog'liqlik holatlari va bu millatlar mentalitetidagi o'rni yetarlicha lingvokulturologik tahlil qilinmagan. Ushbu maqolada mazkur konseptni har ikki tilda qiyosiy tahlil qilish orqali milliy-madaniy ahamiyatini ochib berish maqsad qilingan.

Antroposentrizm paradigma markazida inson ongi, so'zlovchi omili turadi. “Sabr” tushunchasi esa kishining irodasi, tashqi vaziyatlarga munosabatini ifodalovchi terminlardan biridir.

1. “Sabr” so'zining etimologik tahlili.

Sabr so'zi arabcha صبر so'zidan olingan bo'lib, “o'zini tiyish”, “chidam”, “iroda” degan ma'nolarni bildiradi. Kengroq qilib izohlaganda, biror bir holat yoki hodisani bardosh bilan kutish, qiyinchiliklarga chidash degani. Bu so'z har ikki tilda ham tub (original) ma'nosini to'liq saqlab qolgan. Shu bilan birga ijtimoiy-ma'naviy qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

2. O'zbek va arab maqollarida “sabr” konseptining ahamiyati.

O'zbek xalq og'zaki ijodida sabr mehnat, vaqt va yakuniy mukofot so'zlari bilan yonma-yon keladi. Masalan:

-“Sabr bilan mehnat qilgan boy bo'lar”. Bu maqolda sabr nafaqat kutish, balki jismoniy va ma'naviy bardoshga, natijasi esa moddiy mukofotga tenglashtiriladi. Darhaqiqat, zahmat chekib qilingan, iroda va matonat bilan sug'orilgan har qanday ish-faoliyat o'z egasiga ko'rgan qiyinchiliklaridan bir necha barobar ortiq mukofotlar olib keladi.

-“Sabrli bo'lsang, o'zarsan,

Sabrsiz bo'lsang, to'zarsan”. Bu yerda har bir holat va vazifaga sabr bilan yondashilsa, yuqori marralarga erishish mumkinligi ta'kidlanadi. Misol uchun inson irodali bo'lganida, mashaqqatlarni qat'iyat bilan yengib o'tganida uning jamiyatdagi obro'si ortadi. Mehnat qilish va kasbiy muammolarda ham xuddi shunday. Agar sabr

bilan oxirigacha borilsa, qiyinchiliklar osonlashadi, ko'zlangan maqsad, moddiy daromad hamda baxt-saodatga erishiladi.

Bundan tashqari, "Sabr – achchiq, mevasi – shirin", "Kamoli imon – sabr", "Sabr tagi – sariq oltin", "sabr – yutuq kaliti", "Boriga rozi bo'l, Yo'g'iga sabr qil" singari o'zbek xalq maqollari an'anaviy hayotimizda faol qo'llanadi. Ushbu maqollar umumiy holda maqsadga erishish uchun shoshqaloqlik qilmay vaqtdan unumli foydalangan holda tinimsiz harakat, bardosh va qunt qilish kerakligini o'rgatadi.

Arab madaniyatida esa sabrga ko'proq diniy-falsafiy jihatdan qaraladi. Shuningdek, yashash sharoitidagi sahroyilik, cho'l tabiati ham ular hayotida sabrga zarurat tug'diradi. Masalan:

"الْفَرَجُ مِفْتَاحُ الصَّبْرِ" - Sabr-yengillik kaliti. Ushbu maqolda sabr qilgan kishi najotga sazovor bo'lishi uqtirilgan.

"يَوْمٌ حَالٌ لَا" - Hech bir holat abadiy emas. Mazkur hikmat hayotdagi, kundalik turmushdagi qiyinchiliklar uzoq davom etmasligini eslatib turadi.

"صَبْرِي عَنْ الصَّبْرِ يَعْجَزُ حَتَّى صَبْرًا" - Sabr qilaman, toki sabr sabrimdan charchaguncha. Ali ibn Abu Tolibga tegishli bu hikmat zamirida musulmon kishiga xos bo'lgan yuksak odob, komil e'tiqod, mashaqqatlar ortidan keladigan jannat hayotiga bo'lgan ishonch tushunchalari yotadi. Chunki mo'minlar bu dunyo hayoti vaqtincha ekani, Alloh o'zi suygan bandalarini turli qiyinchiliklar, yo'qotishlar, kasallik va musibatlar bilan sinashini yaxshi biladilar. Barchasini shukr va go'zal sabr bilan qabul qiladilar.

3. Qiyosiy tahlil natijalari.

Tadqiqotlardan shu ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilida "sabr" so'zi mehnat, qiyinchiliklarni yengib o'tish va baxtga erishishda talab qilinadigan "iroda", "chidam" so'zlariga sinonim sifatida keladi. Arab tilida esa odatda diniy-sotsial tus olib, "matonat", "bardosh berish", "qat'iyat" shaklida talqin qilinadi.

O'zbek va arab kulturalizmida ham sabr komillik, saodatga eltuvchi yo'l hamda to'kis odob-axloqning yuksak belgisi hisoblanadi. O'zbeklarda u ko'proq ijtimoiy totuvlik, mehnatsevarlikni ifodalasa, arab manbalarida esa insonning ichki metin irodasi, taqdirga bo'lgan rozilik, nafsni jilovlay olish tushunchalari dominantlik qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsam, "sabr" konseptini lingvokulturologik va qiyosiy-lisoniy o'rganish ikki xalq va til madaniyatini, ijtimoiy karakterini teran anglashga yordam beradi. O'zbek va arab tillaridagi maqol va hikmatlar orqali usbu xalqlarning azaliy dunyoqarashini, sabrga konseptiga bo'lgan ijobiy munosabatini ko'ramiz. O'zbek tilida sabr axloqiy kategoriya bo'lib, jamiyatdagi insoniy munosabatlarni tartibga solidi. Uni birdamlikka, chiroyli odobga boshlaydi. Arab tilida bo'lsa sabr azaldan mavjud tushuncha bo'lib, insonning ilohiy bardoshi, kucg va shijoat belgisi deb qaraladi. Antroposentrik nazariya doirasida bunday tadqiqotlar tillar va madaniyatlararo aloqalarni kengroq tushunishga va yaxshilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduraximova F.K. Antroposentrik paradigma va lisoniy shaxs tushunchasi.
2. Uz.wikiquotes.org. o'zbek xalq maqollari.
3. Ziyo istagan qalblar uchun-<https://n.ziyouz.com>.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi(2000-2005) Birinchi jild. Toshkent.
5. MyFarzand.uz. maqollar. <https://myfarzand.uz>
6. Xorijiy filologiya jurnali: samxorfil.uz. Lingvokulturologiya- til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi. Oktyabr 2018.
7. Muslim.uz. O'zbekiston musulmonlari idorasi: Sabr haqida saboqlar.